

INSONNING FIKRLASHI



JAMES ALLEN

Ongni rivojlantiruvchi maqolalarni bizning telegram kanalda o'qing:

<https://t.me/mytypewriter>

Insonning fiklashi

Jeyms Allen

(c) 2019 Dastan Kasimoff tarjimasi

Dizayner: Dastan Kasimoff

Redaktor: Dastan Kasimoff

Mundarija

So'zboshi

1-bob. Fikrlash va xarakter

2-bob. Fikrlashning sharoitga ta'siri

3-bob. Fikrlashning salomatlikka ta'siri

4-bob. Fikrlash va maqsad

5-bob. Fikrlash va natijalarga erishish

6-bob. Qarashlar va ideallar

7-bob. Xotirjamlik

Oliy kuch bu - ong.

Inson - ijodkor ong,

Ming kasallik yoki sog'likda ham

O'zi xohlagan har qanday narsani yarata oladi.

Mavhum fikrlarni yuzaga chiqaradi,

Atrofingiz esa shu fikrlarning ko'zgusiga aylanadi.

Jeyms Allenning pozitiv falsafasi qonun, adolat va qat'iyat kabi qarashlarga asoslangan. Aynan shu qarashlar dunyoni boshqaruvchi—harakatlantiruvchi va bunyodkor kuchlar hisoblanadi. Qat'iy inson borliqning tabiati ham qat'iy qonunlarga asoslanganini tushunib yetgan bo'ladi. Ruhiyatni his qilish darajasiga erishgan inson uning dunyoga bo'lgan munosabati o'z navbatida dunyoning unga bo'lgan munosabatini belgilab berishini tushunadi. Har qanday fan, hodisalar va jarayonlar insonning ruhiy dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan.

So'z boshi

Bu uncha katta bo'lmagan kitob, mening fikrlashim va shaxsiy tajribam asosida dunyoga kelgan va fikrlashning kuchi haqidagi barcha tan olgan traktatlar qatoridan o'rin olishga davogarlik qilmaydi. Bu mavzuda juda ko'p asarlar yozilgan. Kitobim tushuntirmayadi, sizga ko'proq maslahat beradi. Kitobning maqsadi esa – barcha ayol va erkaklarni ruhlantirish va o'z hayotlarining quruvchilari aslida o'zlari ekanligini kashf etishga yordam berish.

Ong odamlar hayotida ular tanlaydigan va qo'llab quvvatlaydigan *fikrlari* tufayli ham hukmronlik qiladi. Ongni xuddi xarakterning ichki “kiyimini” va sharoitlarning tashqi “kiyimini” tikuvchi chevarga o'xshatish mumkin. Agar hozirgacha siz og'riq va umidsizlikni his qilgan bo'lsangiz endilikda to'g'ri fikrlash orqali siz baxt va ruhiy poklanishga erishishingiz mumkin.

TEAM
Kasimoff®

Birinchi bob

Fikrlash va xarakter

“Inson ich-ichida qanday fikrlayotgan bo’lsa, aslida ham shunday”. Har bir shaxs nimaniki o’ylayotgan bo’lsa shuni aks ettiradi. Uning xarakteri esa fikrlarning yig’indisi hisoblanadi.

Xuddi urug’dan unib chiqqan o’simlik kabi insonning har bir harakati fikrlarning yashirin urug’i asosida o’sib chiqadi. Fikrlamay turib harakat qilish mumkin emas. Bu “to’satdan” va “atayin qilinmagan” harakatlar, undan tashqari ongli harakat uchun o’rinlidir.

Harakat – fikrning yetilgan g’unchasi, quvonch yoki qayg’u esa – harakatning mevasidir. *Inson o’z harakatlarining mahsuli bo’lgan xushta’m yoki totsiz mevalarni terib oladi.*

Shaxs o’z harakatlarining natijalari asosida rivojlanib boradi va uning hayoti tugal yaratilmagan. *Sabab-natija* bog’liqligi, fikrlarning yashirin borlig’ida ham ko’zga ko’rinib turadigan material hayotda ham o’zgarmas hisoblanadi. Go’zal va ruhlantiruvchi xarakter o’zo’zidan paydo bo’lib qolmaydi. Bunday xarakter faqatgina to’g’ri fikrlash natijasida yuzaga keladi. Yomon xarakter ham yomon fikrlash natijasida yuzaga keladi.

Inson o’zini-o’zi ham bunyod etadi, ham yakson qiladi. Bir tomondan ong ustaxonasida u o’ziga shikast yetkazishi mumkin bo’lgan qurolni yasaydi. Boshqa tomondan esa u shu ustaxonaning o’zida quvonch, tinchlik qurolini yasashi ham mumkin. Fikrlarni to’g’ri yo’nalishga qaratish orqali inson ilohiy yetuklik cho’qqisiga erishishi mumkin. *Noto’g’ri fikrlash esa insonni hayvondan ham pastroq darajaga tushirib qo’yishi mumkin.* Tog’ri va noto’g’ri fikrlash orasida inson yaratgan xarakter xillari yotadi.

Oxirgi yillarda hayotning ko’p qonuniyatlari qayta-qayta kashf etildi va ommaga havola etildi. Bu kitobda sizga yetkaziladigan haqiqat bilishingiz kerak bo’lgan eng muhim hayot haqiqati hisoblanadi. Unga ko’ra inson o’z fikrlarining hukmdori va o’z xarakterining yaratuvchisi

hisoblanadi. Insonning o'zi o'z taqdiri, yashash sharoiti va tevarak muhitini yaratadi.

O'z fikrlarining hukmdori bo'lgan inson, har bir hayotiy vaziyatning kalitini qo'lida mahkam tutadi. Fikrlarda, shaxs hohlagan vaqtda o'zgarishiga yordam beruvchi oz'garuvchan va qayta tug'iluvchi kuch yashiringan.

Inson o'z fikrlariga har doim, hatto eng zaif va tuban vaziyatlarda ham hukmronligicha qolishi mumkin. Bunday vaziyatlarda inson o'z "uyini" yomon boshqarayotgan hukmdor sifatida namoyon bo'ladi. O'z holi haqida fikrlab va nima uchun dunyoga kelganini tushunishga intilish davomida inson donolikka erishadi va o'z ichki quvvatini ijobiy yutuqlarga erishishga qaratadi. Fikrlarning ongli hukmdoriga aylanish uchun inson o'z ichida fikrlash qonunini kashf etishi kerak. Bu kashfiyot o'z-o'zini anglab yetish va amaliyotda buni tushunishga to'g'ridan-to'g'ri bog'langan.

Oltin va brillinatlarni topish uchun birinchi navabtda yerni kovlash kerak bo'ladi. Inson ham nima uchun bu dunyoga kelganini o'z ko'nglida "chuqur kon" ni "qazib" bo'lishi bilangina anglab yetadi. Qanday qilib har bir shaxs o'zi o'z xarakteri, hayoti va taqdirining yaratuvchisi ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin? Buning uchun u o'z fikrlarini nazorat qilishi va zaruratga qarab o'zgartirishi, boshqalarga, yashash sharoitiga va o'ziga bo'lgan ta'sirini kuzatib borishi kerak. U sabab va natijalarni bir-biriga bog'lay olishi kerak. Hatto eng oddiy kechinmalar va kundalik voqealar insonning o'zi haqidagi, donolikka olib keluvchi yangi ilmlarni o'zlashtirishiga yordam beradi. Hayotning mutlaq qonuniga ko'ra "izlagan topadi, tinmay qoqqan eshik ochiladi". Faqatgina sabr va qat'iyat ko'rsata olgan insongagina ilm qasrining eshiklari ochiladi.

Ikkinchi bob

Fikrlashning sharoitga ta'siri

Inson ongini go'zal yoki ko'rimsiz bog'ga o'xshatsa bo'ladi. Bog'ga g'amxo'rlik qilishadimi yoki yo'qmi baribir unda biron bir narsa o'sishi kerak. O'sish har doim sodir bo'ladi. Agar bog'da foydali urug'lar o'tqazilmagan bo'lsa, u o'ziga xos meva beradigan begona o'tlar bilan to'lib ketadi.

Bog'bon o'z maydonini begona o'tlardan ehtiyotkorlik bilan himoya qiladi va faqat parvarishlashni xohlagan gullarni o'stiradi. Xuddi shu tarzda, inson o'z ongining bog'ida barcha soxta, foydasiz va nopok fikrlarni yo'q qilib, haqiqiy, foydali va sof fikrlarning gullarini o'stiradi. Ichki fikrlash jarayonida inson o'z qalbining asosiy bog'boni, o'z hayotining oliy hukmdori ekanligi xulosasiga keladi. U o'z ongining afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilib, tafakkur qanday qilib uning fe'l-atvori, holati va taqdirini shakllantirishini tobora ko'proq anglaydi.

Fikrlar va xarakterning mohiyati bir. Xarakter, o'z navbatida, faqat atrof-muhit va sharoitlar orqali namoyon bo'lishi va kashf etilishi mumkin. Inson hayotining tashqi sharoitlari uning ichki holati bilan uyg'un ravishda bog'liqdir. Bu insonning holati hamma vaqt uning butun xarakterini ochib bera olishini anglatmaydi. Ammo sharoit hayotiy muhim ruhiy jarayonlar bilan shu qadar chambarchas bog'liqki, ong holati uning butun rivojlanishiga ta'sir eta olmaydi.

Dunyoga kelish qonuniyati tufayli har bir kishi hozir qayerda bo'lsa osha joyda turibdi. U o'z xarakterining bir qismiga aylantirgan fikrlar uning hozirgi holatini shakllantiradi. Uning hayotida tasodif uchun hech qanday joy yo'q - bu xatolarni tan olmaslik qonuniyatining natijasidir. Ushbu bayonot atrof-muhit bilan "uyg'un emaslik" ni his qiladigan odamlarga va shu bilan birga yashash sharoitidan qoniquvchi odamlarga ham tegishli.

Evolyutsiyalanuvchi va rivojlanuvchi mavjudot sifatida, shaxs har qanday sharoitda o'sishni o'rganadi. Hozirgi sharoitlarning ma'naviy saboqlarini olib, u boshqa sharoitlarni yaratadi.

Inson uning hayoti faqat tashqi sharoitlarga bog'liq ekaniga ishonmaguncha, hayot qiyinchiliklarining ostida bo'ladi. O'zining ijodiy kuchi va mavjudligining "tuproqlari" va "urug'lari" ga buyruq berish qobiliyatini anglagan holda, sharoitlar o'sib chiqishi bilan u hayotining to'laqonli boshqaruvchisiga aylanadi.

Sharoit tafakkurning mevasi ekanligi uzoq vaqt davomida o'zini nazoratda tutish va ichki poklanish bilan shug'ullangan har bir kishiga tanishdir. Shuni ta'kidlash kerakki, *tashqi sharoitlarning o'zgarishi ongdagi o'zgarishlarga bevosita bog'liq*. Inson o'z fe'l-atvoridagi kamchiliklarni to'g'rilashga qat'iy harakat qilganda, u sezilarli darajada rivojlanadi va uning rivojlanishi jadallashadi.

Ko'ngil o'ziga jalb qiladigan hamma narsani tusaydi - u sevadi va shu bilan birga qo'rqadi. U yo go'zal orzular cho'qqisiga ko'tariladi yoki nopok instinktlar darajasiga tushadi. Sharoit - ko'ngil aslida nimaga loyiq bo'lsa, shuni olishiga ko'maklashuvchi vosita hisoblanadi.

Ongda o'stirilgan yoki unga tushib, ildiz otishga ijozat berilgan har bir "urug", keyinchalik imkoniyat va sharoitlar mevasini beradigan harakat ko'rinishida rivojlanib, gullab-yashnaydi.

Yaxshi fikrlar yaxshi natijalarga olib keladi, yomon fikrlar esa yomon natijalarga olib keladi.

Tashqi sharoit ichki ruhiy olamga muvofiq holda shakllanadi. Qulay hamda noqulay yashash sharoiti insonning farovonligiga xizmat qiluvchi omillardir. O'z hosilining "terimchisi" sifatida inson azob-uqubatlarni ham, shon-sharafni ham tuyib ko'radi.

Biz ongimizda hukmronlik qilishimizga imkon beradigan *ichki istaklar, intilishlar va fikrlar* (yoki nopok xayolning adashtiruvchi chiroqlari bilan o'ynashib yoki kuchli va ulug'vor ishlar yo'lida doimiy ravishda harakatlanish) ga ergashib, inson har qanday sharoitda namoyon bo'la oluvchi yakuniy natijaga erishadi. O'sish va moslashish qonunlari barcha sohalarda teng kuchga ega.

Inson kambag'allar uchun boshpana yoki qamoqxonaga taqdirning injiqligi yoki noqulay sharoitning xohish-irodasi tufayli emas, balki tuban fikrlar va nopok istaklar tufayli tushib qoladi. Xuddi shu tarzda, bir vaqtlar yorqin aqlga ega bo'lgan odam stress yoki noqulay tashqi kuch ta'siri ostida jinoyatga qo'l urmaydi. Jinoiy fikr uzoq vaqt davomida ongda yashirilib yuradi va imkoniyat tug'ilishi bilan yuzaga chiqadi. Sharoit odamni shakllantirmaydi - u uning asl xarakterini ochib beradi xolos. Yomonlikka moyilligi yo'q bo'lgan odamning gunohga va shu bilan birga azob-uqubatlarga tushishiga imkoniyat beradigan sharoit mavjud emas. Xuddi shunday, ezgu fikrlarni rivojlantirmagan kishi baxtga erisha olmaydi. *Inson o'z fikrlarining ustasi, o'z hayotining, o'z atrof-muhitiining yaratuvchisi hisoblanadi.* Xatto endigina tug'ilgan paytda ham ko'ngil unga munosib bo'lgan narsani olishga harakat qiladi.

Odamlar o'zlariga istagan narsalarini emas, balki o'zlari ich-ichidan tayyorlagan narsalarni jalb qiladilar. Inson o'zi tomonidan qamoqqa olinishi mumkin va o'zgarmas fikrlari va harakatlari bu TAQDIR qamoqxonasining zulmat qo'riqchilariga aylanadi. Ammo olijanob fikrlar va harakatlar - siz uchun ozodlik farishtalariga aylanadi. Shaxs istagan yoki ibodatida so'raganiga emas, balki, nimaga loyiq bo'lsa shunga erishadi. Istak va ibodatlarga javob faqatgina ular fikrlar va harakatlar bilan uyg'unlashgan bo'lsagina keladi.

Uchinchi bob

Fikrlashning salomatlikka ta'siri

Tana - aqlning xizmatkori. U ongli yoki ongsiz ravishdaligidan qat'iy nazar fikrlarga bo'ysunadi. Ong tanaga qonuniyatlarga mos kelmaydigan fikrlarni yuborganda, tana tezda kasal bo'lib, tushkunlikka tushadi. Aql tanaga go'zallik va quvonch haqidagi fikrlarni yuborganda, u yoshlik va jozibaga ega bo'ladi.

Kasallik va salomatlik, xuddi atrofingizni o'rab turgan sharoit singari, fikrlashdan kelib chiqadi. Og'riqli fikrlar og'riqli tanani hosil qiladi. Qo'rquv fikri, ma'lum bo'lishicha, odamni o'qday tez o'ldirishi mumkin. Ko'pchilik insonlarning qo'rquv haqidagi fikrlari ularni asta-sekin nobud qila boshlaydi. Biror kasallikka chalinishdan qo'rqadigan insonlar esa aynan shukasallikka duchor bo'lishadi. Xavotir, inson tanasini tezda quroolsizlantiradi va uni kasallik oldida himoyasiz qilib qo'yadi. Nopok fikrlar, hatto jismoniy bosiqlikka aloqasi bo'lmaganlari ham, qisqa vaqt ichida asab tizimini buzadi.

Kuchli, pok va baxtli fikrlar tanani go'zal holatda saqlaydi. Tana - ongning impulslariga doimiy javob berishga tayyor bo'lgan, nozik va o'zgaruvchan asbob. Aqliy odatlar tananing yaxshi holatini ham, yomon holatini ham shakllantirish uchun javobgardir.

Odamlarning qoni, onglaridagi nopok fikrlar ko'paygani bilan, zaharlangan va iflos bo'lib qolaveradi. Sof yurakdan esa, pok tana va toza hayot sizib chiqadi. Nopok ongdan, nopok hayot va kasallangan tana yuzaga keladi. Fikr - bu harakatlar va hayotning manbayi hisoblanadi. Manba toza bo'lsa, barcha tashqi belgilar ham toza bo'ladi.

Parhezni o'zgartirish, o'z ong holatini o'zgartirmagan odamga yordam bera olmaydi. U toza fikrlashni boshlashi bilan, nopok ovqatni iste'mol qilish istagi yo'qoladi.

Sof fikrlar poklikni odat tusiga aylantiradi. O'z fikrlarini mustahkamlagan va tozalagan odam yovuzliklarni qabul qilmaydi.

Agar o'z tanangizni takomillashtirishni xohlasangiz, fikrlaringizni pok holda saqlang, yomon hayollarga berilmang. Agar tanangizni yangi ko'rinishga olib chiqmoqchi bo'lsangiz, fikrlaringizni o'zgartiring. Yomonlik, hasad, nolish va umidsizlik fikrlari tanani quritadi, uni sog'liq va hayotiy kuchdan mahrum qiladi. G'amgin yuz tasodifan paydo bo'lmaydi, u g'amgin fikrlar natijasida paydo bo'ladi. Tanani ko'rimsiz qiluvchi ajinlar ham, ahmoqlik, ehtiros va mag'rurlikning natijasidir.

Men to'qson olti yoshlardagi, ammo yosh qizning yorqin va begunoh yuziga ega bo'lgan ayol bilan tanish edim. Shuningdek, men hali o'rta yoshga yetmagan, yuzini ajinlar qoplagan odamni bilardim. Birinchi holda, jismoniy holat yaxshi va yorqin ong bilan, ikkinchi holatda esa - ehtiros va o'z hayotidan qoniqmaslik bilan izohlanadi.

Uyingizda uni yaxshilab shamollatib, derazalarni quyosh nuri bilan to'ydirish uchun ochmaguningizcha yaxshi muhit bo'lmaydi. Xuddi shu kabi, kuchli tana, yorqin, baxtli va mamnun yuz faqatgina ongning derazalarini quvonch, inoyat va tinchlik haqidagi fikrlar uchun ochilganda shakllanadi.

Qariyalarning yuzidagi ba'zi ajinlar hamdardlik, kuchli va pok fikrlar, boshqalari esa yolg'on ehtiroslar tomonidan qoldiriladi. Ularni qanday ajratish mumkin? Odil hayot kechirgan odamlarda qarish xotirjam, osuda va tinch kechadi. Ularning hayoti xuddi quyoshning botishiga o'xshaydi. Yaqinda men bir faylasufni o'lim to'shagida ko'rdim. U ko'p yillar yashagan bo'lsa ham, unchalik qari ko'rinmas edi. U osuda va xotirjam hayot kechirganidek xotirjam va osuda vafot etdi.

Quvonchli fikrlar tanadagi kasalliklarni har qanday shifokorga qaraganda yaxshiroq chiqarib yuboradi. Xayrli fikrlar g'amdan odamni har qanday yupatuvchidan yaxshiroq qutqaradi. Yomon, odobsiz, shubhali va hasadli fikrlarning ongga doimiy ravishda yo'l qo'yish, o'zingizni qamoqda saqlash bilan barobardir. Boshqa tomondan, barchaga mehribon bo'lish, har qanday sharoitda xursand bo'lib qolish, barcha narsadan yaxshilikni topish, egoizmdan holi bo'lish - samo

eshiklarini ochishni anglatadi. Butun borliqqa qaratilgan tinchliksevar fikrlar ularni o'stirgan kishiga tinchlik keltiradi.

TEAM
Kasimoff®

To'rtinchi bob

Fikrlash va maqsad

Inson o'z ongida maqsad tuyg'usini rivojlantirmaguncha, jiddiy yutuqlarga erishishga qodir emas. Afsuski, ko'pchilik odamlar onglarining qayiqlariga, maqsadsiz hayot okeanida suzib yurishiga yo'l qo'yishadi. Maqsadsizlik – bu yovuzlik. Ozi uchun falokat va o'limni xohlamaydigan har qanday shaxs, bunday maqsadsiz yurishni o'ziga ravo ko'rmaydi.

Maqsadsiz yashovchi odamlar mayda tashvishlar, qo'rquvlar, muammolar hamda o'zlariga nisbatan bo'lgan achinish hissining yengil qurboniga aylanadilar. Shunga o'xshash zaiflik, xuddi ongli ravishda qilinadigan gunohlar kabi ularni muvaffaqiyatsizlikka, baxtsizlikka va yo'qotishlarga olib keladi. Hech qanday zaiflik borliqda katta kuchga aylanish tomon rivojlanayotgan holatga aylana olmaydi.

Inson qonuniy hayotiy maqsadni ishlab chiqishi va unga erishish uchun qat'iy harakat qilishi kerak. Bu maqsad uning barcha fikrlarining markazida bo'lishi kerak. U dunyoviy bo'lishi mumkin yoki insonning biron bir narsaga moyilligiga ko'ra – ruhiy ideal shaklini olishi mumkin. Har qanday holatda ham, shaxs barcha aqliy kuchlarini qo'ygan maqsadiga qaratishi kerak. U bu maqsadni o'zining yuqori ma'suliyatiga aylantirishi va o'zini boshqa narsalarga, hom orzu hayollarga chalg'imagan holda bu maqsadni amalga oshirishga bag'ishlashi kerak. Bunday harakat – o'z-o'zini boshqarish hamda fikrlarni bir yerga jamlashning “shohona yo'l”i hisoblanadi. Xatto maqsadga erisha olmay, yana va yana yiqilayotgan bo'lsa, o'rnidan turib, zaiflikni yengmaguncha olg'a harakatlanishi kerak bo'ladi. Xarakterning kuchliligi uning haqiqiy muvaffaqiyatining o'lchovi bo'ladi. Bu bilan u kelajakdagi g'alabalari uchun poydevor qo'yadi.

Katta maqsadni qabul qilishga hali tayyor bo'lmagan odamlar diqqatni jamlashlari kerak, ular qanchalik ahamiyatsiz ko'rinmasin, o'z vazifalarini benuqson ravishda bajarishlari kerak bo'ladi. Faqat shu yo'l bilan odam o'z fikrlarini to'plashi va diqqatini jamlashi, shuningdek

qat'iyatni va energiyani rivojlantirishi mumkin. Inson o'zini mukammallashtirgandan so'ng, uning uchun hech qanday qarshilik va to'siqlar qolmaydi.

O'z nuqsonlarini bilgan, lekin, kuch, tizimli tirishoqlik natijasida rivojlanishiga ishongan eng zaif ruh egasi, tezlik bilan rivojlana boshlaydi. Tirishqoqlikka tirishqoqlik, sabrga sabr qo'shgan sari, inson ilohiy darajaga yetmaguncha rivojlanishda to'xtamaydi.

Xuddi jismonan zaif odam tirishqoqlik bilan mashq qilish orqali kuchli bo'la olgani kabi, zaif fikrlaydigan odam fikrlashga oid to'g'ri mashqlar qilgani sari aqliy kuchga ega bo'lishi mumkin.

Maqsadsiz va zaif ongini tozalash, maqsadli o'ylashni boshlash – bu mukammallik sari yo'ldagi muvaffaqiyatsizlikni faqat oraliq sifatida ko'radigan kuchli odamlardan biri bo'lish degani emas. Kuchli fikrlaydigan insonlar, har qanday sharoitni o'zlari uchun foydaga ishlashga majburlay oladigan insonlardir. Bunday inson qo'rquv nimaligini bilmagan holda sihlarni bajaradi va natijada sezilarli muvaffaqiyatlarga erishadi.

O'ziga maqsad qo'ygan holda, inson aqliy ravishda unga erishish yo'lini ishlab chiqadi va unga erishish yo'lidan o'ngga yoki chapga chalg'imagan holda olg'a qadam tashlaydi. Shubha va qo'rquvni chiqarib tashlash kerak, chunki ular sa'y-harakatlarga halokatli ta'sir ko'rsatadi.

Shubha va qo'rquv haqidagi fikrlar hech qachon hech qanday natijaga erisha olmaydi. Ular har doim muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Inson onggiga shubhalar va qo'rquvlar kirib borganda, ular odamning irodasi, quvvati hamda kuchiga zararli ta'sir ko'rsatadi.

Istak va qat'iyat biz harakat qilishimiz mumkinligidan kelib chiqadi. Shubhalar va qo'rquvlar bilimning katta dushmanidir. O'z vaqtida ulardan voz kechmaydigan shaxslar o'zlari uchun to'siq yaratadilar.

Shubhalarni va qo'rquvni yenggan odam muvaffaqiyatsizlikni ham yengadi.

Beshinchi bob

Fikrlash va natijalarga erishish

Insonning yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari uning fikrlarining bevosita natijasidir. Muvozanatni yo'qotish butunlay vayron bo'lishni bildiradigan bu adolatli tuzilgan borliqda, shaxsiy ma'suliyat mutlaq bo'lishi kerak. Insonning zaifligi va kuchi, uning pokligi va nopoklik boshqasiga emas, aynan shu insonning o'ziga tegishli. Faqat u o'zining fazilatlarini yaratadi va faqat u ularni o'zgartirishi mumkin. Insonning azob-uqubatlari va baxt-saodati ichkaridan ochiladi. U qanday fikrlyotgan bo'lsa, u shunday, qanday o'ylayotgan bo'lsa, shunga aylanib boradi.

Agar yordam olishni istamasa, kuchli odam zaif odamga yordam bera olmaydi. Lekin agar kuchsiz inson kuchli bo'lishni xohlayotgan bo'lsa, u bunga o'zi erishishi kerak bo'ladi. U qat'iyat bilan o'zida o'zga insonda ko'rayotgan kuchini shakllantirishi kerak. Hech kim uning holatini o'zgartira olmaydi, o'zidan boshqa.

Uzoq vaqt davomida shunday deb hisoblangan: "Qullar zolimlar borligi tufayli mavjud. Zolimlar nafratga loyiq!" Lekin to'g'ridan-to'g'ri buning aksini da'vo qilayotgan odamlar ham bor: "Zolimlar bor, chunki ko'pchilik qullardir. Keling qullikni rad eting!" Bunday qarashlar tobora ommalashib bormoqda.

Haqiqat shundaki, zolimlar va qullar - jaholat zanjirining bir qismi hisoblanadi. Tashqaridan qaraganda ular ular bir-birlari bilan jang qilishayotgandek, aslida esa ular faqat o'zlariga yomonlik qilishadi xolos. Bu ikki kishining azoblarini ko'rgan mukammal sevgi egalari ularni hukm qilmaydi. Mukammal rahm-shafqat egasi o'z ichiga zolim va mazlumni oladi. Zaiflikni mag'lub etgan va hamma narsani yo'q qilgan kishi esa xudbin fikrlar, mazlum yoki zolimlarga tegishli emas. U ozod insondir.

Bir kishi yuksak fikrlar tufayli ko'tarilishi, muvaffaqiyat qozonishi va g'alaba qozonishi mumkin. Agar u yuksak fikrlarini rad etsa zaif, kamsitilgan va baxtsiz bo'lib qoladi.

Hatto dunyoviy ishlarda ham muvaffaqiyatga erishish uchun, insonga aqliy yuksalish kerak. Muvaffaqiyatli bo'lish uchun u o'z xudbinligining muayyan qismini qurbon qilishi kerak. O'z fikrlarini tutib tura olmaydigan shaxs tiniq fikrlay olmaydi hamda ishlarini rejalashtira olmaydi. O'z ichki manbalarini topmagan, ularni shakllantirmagan inson mag'lubiyatga uchraydi. Inson aqliy o'zini o'zi nazorat qilishni rivojlantirmasa o'z ishlari uchun jiddiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga hali tayyor bo'la olmaydi. U qanday mustqil harakat qilishni hamda yolg'iz qolishni bilmaydi. Biroq, u faqat ongli ravishda tanlangan fikrlar bilan cheklangan bo'ladi.

Qurbonlik qilmasdan taraqqiyotga erishish mumkin emas. Inson o'z fikrlarini qancha kuchli nazoratga olsa, o'shanchalik katta muvaffaqiyatlarga erisha oladi.

Koinot ko'rinishidan buni aksi bo'lsa ham, ochko'z, nohaq va yovuzlikni yoqtirmaydi. U halol, saxovatli va yaxshi fazilatli insonlarga yordam beradi. Hamma o'tmishning buyuk o'qituvchilari bu haqda gapirishgan. Lekin, aslida ular so'zlarining haqiqatligini isbotlash uchun, har bir shaxs qat'iyat bilan yaxshi fazilatlarga intilishlari kerak.

Intellectual yutuqlar - go'zallikni topishga qaratilgan fikrlar natijasidir. Muvaffaqiyat - doimiy va g'ayratli harakatlar, shuningdek, sof fikrlarning tabiiy mahsulidir. Ma'naviy yutuqlar ma'naviy intilishlarning eng yuqori nuqtasidir. Har qanday yutuqlar bu kuchning tojidir, fikrlarning ajoyib bezaklaridir. Qachon inson o'z-o'zini nazorat qilish, qat'iyatlilik, poklik, solihlik va aqliy kontsentratsiyaga erishsa, bu uning uchun eng yaxshi tuhfa bo'ladi.

Bir kishi dunyoviy muvaffaqiyat va hatto ma'naviy yuksaklikka erisha oladi, lekin keyin yana u mag'rurlik bilan, xudbin va yomon fikrlarga joy bersa zaiflik va ahamiyatsizlikka qaytib keladi.

G'alabalar to'g'ri fikrlardan kelib chiqadi, ammo to'g'ri fikrlarning yo'qligi sababli hushyorlik yo'qoladi. Ko'plab muvaffaqiyatli odamlar sa'y - harakatlarni zaiflashtirishadi va tezda avvalgi muvaffaqiyatsizliklar qaytib kela boshlaydi.

Biznes sohasida, intellektual va ma'naviy dunyoda bo'ladigan barcha yutuqlar bu muayyan aqliy holatning natijasidir. Muvaffaqiyat qonunlari bir xil. Faqat yagona farq bu yakuniy maqsaddir.

Kichik maqsadlarga intilayotgan inson kichik narsalarni qurbon qilishiga to'g'ri keladi. Katta narsalarga intilgan ko'plarni qurbon qilishi kerak. Oliy yutuqlar uchun katta qurbonliklar talab qilinadi.

TEAM
Kasimoff®

Oltinchi bob

Qarashlar va ideallar

Xayolparastlar dunyodagi qutqaruvchilardir. Dunyo o'z xayolparastlarini unutmaydi. U o'z ideallarini tortib olishlariga, o'lishiga yo'l qo'ymaydi. Odamlar ideallarda yashaydilar va orzularning ko'rinadigan haqiqatga aylanishi uchun vaqt topa olamaydilar.

Bastakor, haykaltarosh, rassom, shoir, donishmand - bularning barchasi kelajak dunyosining yaratuvchilari, osmon me'morlari hisoblanadi. Bugungi dunyo juda chiroyli chunki, bir vaqtlar ular yashab, buni yaratganlar. Ularning hissasi bo'lmasa, insoniyat uzoq vaqt ilgari vafot etgan bo'lar edi.

Yurakda ulug'vor idealni qadrlaydigan kishi, bir kun o'z g'oyasini amalga oshiradi. Kolumb yangi yerlarni orzu qilgan va ularni kashf etgan. Kopernik ko'p olamlarning mavjudligini va koinotni juda ham katta ekanligini kashf etdi. Budda pok go'zallik bilan to'lgan ruhiy dunyoni o'ylab topdi va mukammal tinchlikka erishdi.

Orzularingiz va ideallaringizga sodiq bo'ling. O'z yuragingizga quloq soling. Bunday ruhiy kayfiyatda sizda o'ziga ishongan shaxsning tashqi ko'rinishi namoyon bo'ladi. Agar orzularingizni amalga oshirsangiz, butun dunyo nihoyat o'zgaradi.

Istak - harakat qilish demakdir, harakat qilish - bu erishish demakdir. Katta istaklarni birinchi o'ringa qo'ying. Kichiklarini birinchi o'ringa qo'ya olamizmi? Albatta, yo'q. Passivlikni namoyon qilsak, biz hech qachon maqsadning haqiqatga aylanishiga erisha olmaymiz:

"So'rang va oling".

Yuksak orzularni rivojlantirish va ularni amalga oshirish kerak. Sizga kerakli narsani borliqdan so'rang va uni oling.

Dunyodagi eng katta yutuq dastlab faqat orzu edi. Daraxt urug'da uxlaydi, tuxumda esa jajji polapon yotadi.

Orzular haqiqat urug'laridir. Sizning hozirgi sharoitlaringiz salbiy bo'lishi mumkin, ammo ular idealga intilishingiz davomida yaxshilanadi.

Siz har doim sirli ravishda eng ko'p sevgan narsalaringizga qiziqasiz. Inson, odatda, foydalanmayotgan turli xildagi kuchlarni o'zida mujassam etgan.

Modomiki, shunday imkoniyatlarga ega ekanmiz, keling, boshqa odamlarga

o'xshamaganimizdan tashvishlanib, umrimizni zoe ketkazmaylik. Siz - bu dunyoda yangi mavjudotsiz, yorug' dunyo bino bo'lgandan buyon hech qachon sizga butunlay o'xshagan zot bo'lmagan edi va to davri qiyomatgacha ham hech qachon sizga mutlaqo o'xshaydigani bo'lmayajak.

Johil va dangasa odamlar faqat yuzaki ta'sirlarni emas, balki haqiqiy sabablarni ko'rishadi va voqealar omad, baxt va imkoniyat haqida gapiradi.

Sizning fikringiz va siz taxtga qo'ygan idealingizni ulug'laydigandek tuyulgan qalblari, hayotingizni yaratadi. Ular kelajakda nima bo'lishini aniqlaydi.

Yettinchi bob

Xotirjamlik

Aqlning xotirjamligi donolikning eng yuqori mevalaridan biridir. Bu uzoq va sabrli o'zini o'zi boshqarishning natijasidir. Tinchlik - yetuklikni anglatadi va u insonning tajribasi, shuningdek uning aqliy qonunlari haqidagi favqulodda bilimdir.

Shaxs o'zini ongli jihatdan bilgan vaqtda xotirjamlik topadigan rivojlanayotgan mavjudotdir. Ushbu xulosaga kelish uchun u odamlarning hayoti ularning fikrlari natijasi ekanligini anglashi kerak. To'g'ri tushunishni rivojlantirgan holda, odam voqealar, sabablar va oqibatlarining ichki aloqalari yanada aniqroq ko'radi. Shunday qilib, u tashvishlanishdan, xavotir, qayg'u va motamdan to'xtaydi. U xotirjam, tinch va osoyishta, qat'iyatli bo'ladi.

O'zini boshqarishni o'rgangan xotirjam odam, atrofiddagilar bilan munosabatlarni o'rnatishga qodir bo'ladi. Tanishlari, o'z navbatida, uning ruhiy kuchini hurmat qilishadi. ®

Biz uchrashadigan ko'plab odamlar o'zlariga va boshqalarga zarar etkazishadi bu ularni muvozanatdan chiqarishga olib keladigan aqlsiz temperamentdir. Aynan xotirjamlikning yo'qligi yoki o'zini tuta bilmaslik inson baxtsizligining asosiy sababidir. Xotirjamlikka ega bo'lgan odamni toping, bundaylar juda ham kam!

Ha, insoniyat boshqarib bo'lmaydigan ehtiroslar va qayg'ularning tubiga tushadi. U xotirjamlikka erishmasa u yerda xavotir va shubhalar hukmronlik qiladi.

Sizning sharoitingiz qanday bo'lishidan qat'i nazar, hayotning bo'ronlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, quyidagilarni biling:

Hayot ummonida, farovonlik orollari sizni kutmoqda. Idealning quyoshli qirg'oqlari sizni kutmoqda. Keling aqlning boshqaruvini mahkam ushlang. Sizning qalbingiz markazida sher yotibdi. U uxlayapti. Uni uyg'oting! O'zini tutish va xotirjamlik - kuchli qurollardir. To'g'ri fikrlash - hukmronlik qilish vositasidir.

Shuning uchun ham o'z qalbingizga murojaat qiling: "Sizga tinchlik bo'lsin!"

TEAM
Kasimoff®